

HUJJATLARNI QALBAKILASHTIRISH YOKI SOXTALASHTIRGANLIK BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING AYRIM XUSUSIYATLARI

Sadullayev Jaxongir Djamshedovich

(TDYU, Toshkent)

Xujjatlar jamiyatda insonlar o'rtasidagi olib boriladigan ijtimoiy munosabatlarning asosiy harakatlantiruvchi vositasi sifatida qadimdan odamlar orasida foydalanilib kelmoqda. Insonlar o'zaro munosabatga kirishgan paytlarda dastlab, o'zлari uchun kerak bo'lgan barcha holat va ma'lumotlarni eslab qolish qiyinchilik tug'dirmagan. Biror voqeа, hodisa, vaziyat yoki ma'lumotni saqlab qolish uchun ushbu jarayonda shohid bo'lgan kishilar guvoh sifatida foydalilanigan va tabiiyki bu ma'lumotlarni saqlash uchun hujjat yoki shu kabi vosita talab qilmagan. Hujjatlar hozirgi kunda jamianing, shubhasiz barcha sohasining asosigacha yetib borgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Hukumatning barcha muhim ma'lumotlari hamda davlatning ayni damda xalq bilan o'zaro aloqaga kirishishini tasdiqlovchi asosiy dalil sifatida yuzaga chiqayotgan ushbu tizimning qanchalik muhim hamda dolzarb ekanligini ta'kidlash joizdir. Aynan mana shu jihatni ham hujjatlar bilan ishslash tizimining jinoyat qonuni bilan alohida tartibga solinishini talab etadi.

Xususan, mamlakatimiz jinoyat qonunchiligi ham bu masalaga alohida e'tibor qaratgan holda yondashgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XV bobi ya'ni "boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar"ning hujjatlarni soxtalashtirish hamda qalbakilashtirish bilan bog'liq bo'lgan 209-moddasi ya'ni mansab soxtakorligi jinoyati hamda 228-moddasi ya'ni hujjatlarni soxtalashtirish hamda qalbakilashtirish jinoyatlari bilan ushbu tizim tartibga solingan.

Hujjatlar bilan bog'liq qoidabuzarlik holatlari va shu kabi nohuquqiy hatti- harakatlarning qonunchilik ma'muriy yoki fuqarolik huquqiy munosabat bilan emas, balki jinoyat qonunchiligi bilan tartibga solganligi ko'pchilikni o'ylantirishi tayin. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, hujjatlar davlat boshqaruvining shubhasiz barcha soha hamda tarmoqlariga mustahkam o'rashgan bo'lib, ularni hujjatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydigan holatga kelib qolgani barchaga ma'lum va ushbu tizimga qarshi sodir etilgan yoki sodir etilishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy ta'sirlar to'g'ridan - to'g'ri boshqaruvning sekin- asta izdan chiqishiga va oldini olib bo'lmaydigan katta talofatlarga olib kelishi mumkin. Bunda jinoyat qonunchiligi ham aynan ushbu qonunbuzarlik holatlaridan kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlar va natijalarga qarab ushbu munosabatni jinoyat kodeksi bilan tartibga solish kerakligini to'g'ri anglagan.

Hujjatlarni qalbakilashtirish hamda soxtalashtirish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarning jinoyat huquqining qoidalari asosida tarkibini tahlil qilish bilan fikrimizni davom ettiramiz. Jinoyat kodeksining "boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar" bobining 228-moddasidan o'rin olgan hujjatlarni soxtalashtirish hamda qalbakilashtirish bilan bog'liq bo'lgan moddaga ko'ra, shaxs rasmiy hujjatlarni soxtalashtirishi yoki boshqa shaxs foydasiga huquq beradigan yoki ma'lum majburiyatdan ozod qiladigan hujjatni tayyorlashi yoki mavjud rasmiy hujjatni ba'zi o'zgarishlar kiritgan holda qalbakilashtirish yoki shu kabi hujjatlarni sotish jinoiy javobgarlikka sabab bo'la oladi. Ushbu jinoyatni obyekti sifatida tahlil qiladigan bo'lsak, maxsus obyekt sifatida davlatning boshqaruv faoliyati bo'lib hisoblansa, bevosita obyekti bo'lib esa yuridik ahamiyatga ega faktlarni hujjatlar bilan tasdiqlashni ustidan tartibga soladigan ijtimoiy munosabat hisoblanadi. Ushbu jinoyatning sodir etilishida predmet sifatida esa muayyan huquq hamda majburiyat hosil qiladigan rasmiy hujjatlar, shtamplar, muxrlar va blankalar kiradi.

Sharxlayotgan moddamizning obyektiv tomoni ya’ni sodir etilish usuli bo’lib esa biz yuqorida ta’kidlab o’tgan harakatlarni shaxs sodir etishi bilanoq jinoyatning obyektiv tomoni boshqa tarkiblar qatori bajarilgan hisoblanadi hamda tugallangan jinoyat sifatida e’tirof etiladi. Bundan tashqari, ushbu jinoyatning sodir etilishi uchun yana bir o’ziga xos zaruriy sharti sifatida qalbakilashtirilganligini bilish fakti inobatga olinadi va shaxsning aynan rasmiy hujjatni qalbakilashtirish, sotish yoki foydalanish jinoyatiga belgilangan tartibga jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Tahlil qilayotgan moddamizning subyektiv tomoni, ya’ni, ushbu jinoyatni sodir etishda shaxsning munosabati sifatida to’g’ri qasd sifatida baholay olamiz, sababi shaxs ma’lum manfaat yo’lida vakolatli tashkilot yoki korxonalarga tegishli bo’lgan ma’lum rasmiy hujjatlarni qalbakilashtirishni bajarishni o’zi istaydi va uni to’liq angaly oladi.

Hujjatlarni soxtalashtirish bilan bog’liq qilmishlarni kvalifikatsiya qilishda jinoyatni predmetidan foydalanish maqsadlarini aniqlash katta ahamiyatga ega. Tayyorlash yoki qalbakilashtirishning maqsadi aniqlanmagan taqdirda, Jinoyat kodeksining 228-moddasi bo’yicha javobgarlikni istisno etadi. Sotishga nisbatan maqsad yo’q bo’lishi ham mumkin. Ko’rsatilgan predmetlarni sotish uchun javobgarlik, aybdor sotish natijasida erishmoqchi bo’lgan maqsadga erishgan-erishmaganligidan qat’iy nazar, kelib chiqadi.ⁱ

Mazkur jinoyatning subyekti haqida so’z yuritadigan bo’lsak, Jinoyat kodeksining 17-moddasiga muvofiq 16 yoshga to’lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxslar hujjatlarni soxtalashtirish va qalbakilashtirish jinoyati bo’yicha jinoiy javobgarlik subyekti bo’la oladi.

Jinoyat qonunchiligi bilan alohida javobgarlik belgilangan hujjatlarni qalbakilashtirish bo’yicha ayrim huquqiy atamalarga qonunchiligimiz adabiyotlarida ta’rif berib o’tilgan. Demak, qalbaki hujjatni tayyorlash deganda ushbu huquqbuzaralikni sodir qilmoqchi bo’lgan shaxs ma’lum vakolatga ega rasmiy hujjat maqomiga ega bo’lgan korxona, tashkilot, idora hamda muassasalarga tegishli bo’lgan hujjatni qonunga xilof ravishda hamda ushbu turdagи hujjatlarni yasash huquqiga ega bo’lgan shaxslarning ishtirokisiz o’zi mustaqil usha hujjatlarni o’zi tayyorlashi tushuniladi. Bundan tashqari, rasmiy hujjatlarni yasash harakatiga mavjud vakolatli shaxslar tomonidan tayyorlangan hujjatlarning mazmuni va shakliga ta’sir etgan holda ularga o’zgartirish, qo’shimchalar hamda tuzatishlar kiritish harakati ham rasmiy hujjatlarni tayyorlash bo’la oladi. Misol sifatida shaxslarning yaqin oila a’zolariga tegishli bo’lgan avto transport vositasini boshqarish uchun vakolatli tashkilotlardan olinadigan ishonchnomani begona shaxslar tomonidan noqonuniy ism-shariflarni kiritgan holda avtotransport vositalarini boshqarishi ushbu tarkib jinoyatini bera oladi.

Rasmiy hujjatni (korxona, muassasa, tashkilot shtampi, muhri, blankasini) qalbakilashtirish – bu asl hujjatning (korxona, muassasa, tashkilot shtampi, muhri, blankasi) mazmuni yoki shaklini to’liq yoki qisman g’ayriqonuniy modifikatsiya qilish (o’zgartirish). Qalbakilashtirish usullari jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyat kasb etmaydi. Qalbakilashtirish o’chirish, qo’shib yozish, tuzatishlar kiritish hamda mazmuni (matni)ning bir qismini yo’q qilish, qo’shimcha ma’lumotlarni kiritish yo’li bilan sodir etilishi mumkin (masalan, pasportga xorijga chiqish ruxsatini beradigan stikerning qalbakisini yopishtirish).

Xususiy shaxs tomonidan chiqayotgan hujjatni qalbakilashtirish (tilxat, ishonchnoma va hokazolar) JK 228-moddasi bo’yicha kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas. Agar bunday hujjatlarni qalbakilashtirish qandaydir boshqa jinoyatni (firibgarlik, tovlamachilik va boshqa) sodir etish uchun amalga oshirilgan bo’lsa, aybdorlarning harakatlari tegishli jinoyatni sodir etishga tayyorgarlik ko’rish, deb kvalifikatsiya qilinadi.ⁱⁱ

Agar hujjatlarni soxtalashtirish jinoyatini ma’lum vakolatlarga ega bo’lgan mansabdor shaxs tomonidan sodir qilinishi kabi holatlariga jinoiy javobgarlikni belgilash masalasi esa ,Jinoyat kodeksining 209-moddasi “mansab soxtakorligi” orqali hal qilinadi.

Hujjatlarni qalbakilashtirish jinoyatining ommalashib borishini nima sababdan ro’y berishi esa aslida, uzoq qadimgi tarixga taqaladi. Aynan hujjatlarning xalq orasida rasmiy

munosabatlarning asosiy vositachilariga aylanib borishi hamda o’zida ma’lum muhim ma’lumotlarni hamda faktlarni mujassamlashtirishi oqibatida ushbu tizimga nisbatan turli g’arazli niyatlarni ko’zlagan holda foydalanish holatlari avj olib borgan. Hozirda esa barchaga sir emaski, rasmiy hujjatlar faqatgina muhim ma’lumotlarni o’zida jamlamasdan, balki ma’lum shaxslarga muayyan huquq va majburiyatlarni berishi yoki shunday huquq hamda majburiyatlardan ayirib qo’yishi mumkin bo’lgan kuchli yuridik ahamiyatga ega bo’lgan moddiy ashyo sifatida gavdalanadi.

Mamlakatimiz qonunchiligi hujjatlarni soxtalashtirish jinoyatining predmeti sifatida faqatgina ma’lum huquq va majburiyatlarni beradigan yoki ulardan ayiradigan huquqni beruvchi rasmiy hujjatlarni umumiylar ma’noda e’tibor markaziga oladi. Izlanishlarimiz davomida huquqiy tizimi bizdan ancha farq qiluvchi Yevropaning ba’zi davlatlari xususan, Germaniya(Jinoyat kodeksi, 267 – 282 moddalari), Estoniya(186-moddasi) va Norvegiya kabi davlatlari jinoyat qonunchiligidagi hujjatlarni soxtalashtirish va qalbakilashtirish jinoyatlarini predmeti sifatida rasmiy hujjatlarni alohida toifalarga ajratgan holda o’rganadi hamda shaxslarga tegishli boshqa turdagи hujjatlarni ham himoya ostiga olganini ko’rshimiz mumkin bo’ladi. Ushbu hujjatlarni alohida guruhlarga bo’lgan holda kvalifikatsiya qilinishi hamda ularning ahamiyati jihatdan belgilangan tartibda mos ravishda jazo qo’llanilishi shaxslarning qilmishlariga jazo tayinlashda yana ham individual ahamiyat kasb etishini ko’rshimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Ozbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi [2020 yil 1-iyulgacha bo’lgan o’zgarish va qo’shimchalar bilan] – T.: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2020y. – 512 b.
2. M.H. Rustamboyev. Jinoyat huquqi (Maxsus qism). Darslik. T., «O’qituvchi», 2003.
3. Urda M.N. and Grebenkov A.A. Criminal Law Protection of Documents Circulation: A Comparative Analysis // World Applied Sciences Journal 28 (4), 2013. – p. 490-493
4. Estoniya Jinoyat Kodeksi: https://www.legislationline.org/download/id/6462/file/Estonia_CC_as_of_2002_ru.pdf.
5. Germaniya Jinoyat kodeksi:
6. https://www.unipotsdam.de/fileadmin/projects/lshellmann/Forschungsstelle_Russisches_Recht/Neuaufage_der_kommentierten_StGBÜbersetzung_von_Pavel_Golovnenkov.pdf.

ⁱ Rustamboyev.M.X. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharx.[qayta ishlangan va to’ldirilgan ikkinchi nashr 2016-yil 1-noyabrgacha bo’lgan o’zgarish va qo’shimchalar bilan] maxsus qism. Rustamboyev.M. – Toshkent: “Adolat”, 2016. – 960b.

ⁱⁱ C:\Users\User\Downloads\Telegram Desktop\Jinoyat kodeksiga sharh (maxsus qism) (3).htm